ISPAN TILINI O‘QITISHDA TALABALARDA TARJIMONLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Anorboyeva Solixa Asqarjon qizi, *O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german fakulteti Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi stajor-o‘qituvchisi*
e-mail: ssoollyyaa@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola tarjimonlik kompetensiyasining mazmun-mohiyatini ochib berishga bag‘ishlangan. Maqolada tarjimonlik kompetensiyasi tushunchasi izohi, tarjimonlik kompetensiyasining ahamiyati hamda milliy va xorijiy tajriba asosida uning o‘rganilganlik darajasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, tarjimon, tarjimonlik, kompetensiya, tarjimonlik kompetensiyasi, mamlakat, rivojlanish, tarjimashunoslik, chet tili, chet tilini o‘rgatish, mamlakat rivoji, siyosat, ta’lim, chet tiliga qo‘yilgan talablar.

Annotation: This article is devoted to revealing the essence of interpretive competence. The article will talk about the interpretation of the concept of interpretive competence, the importance of interpretive competence and the degree of its study on the basis of national and foreign experience.

Key words: translation, translator, interpretation, competence, interpreting competence, country, development, interpreting, Foreign Language, Teaching a foreign language, development of the country, politics, education, requirements for a foreign language.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning jamiyatni modernizatsiyalash iktisodiyotga innovatsion g‘oyalarni joriy etish masalalariga qaratilgan fikr-mulohazalari barcha ijtimoiy sohalar kabi oliy ta’lim tizimini ham mazmun va shakl nuqtai nazaridan yanada takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz uzliksiz ta’lim tizimining isloh qilinishida ham yoshlarga chet tili o‘rgatish dolzarb vazifa etib belgilandi. Hozirgi



kunda tarjimonlik sohasi bo‘yicha darslik, metodik qo‘llanma, ishlanma, lug‘at va kitoblar yaratish ishlari olib borilmoqda. Tarjimon mutaxassislari tayyorlash uchun metodik qo‘llanmalar va darsliklar muammosi bo‘yicha ko‘pgina masalalar o‘z yechimini topmoqda.

Jamiyatning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalaridan biri jamiyatning hozirgi kundagi talablariga javob beradigan tarjimon mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Hozirgi kunda tarjimon mutaxassis nafaqat yordamchi tarjimon hisoblanadi balki, turli millatlar bilan o‘zaro xalqaro aloqalar o‘rnatishda markaziy shaxs sifatida qaraladi. Tarjimon mutaxassisi nafaqat tarjima bilan shug‘ullanadi, balki chet tilini o‘qitishda ham o‘z xissasini ko‘shib kelmoqda. Chet tilini tarjima orqali o‘rgatadi. Agar chorak asr ilgari ayrim tilshunos olimlar (prof.A.A. Reformatskiy) tarjimashunoslikni mustaqil filologik fan sifatida e’tirof etmagan bo‘lsalar, endilikda boshqa xavf tug‘ildi: kuni kecha bu predmetni “tan olmagan” tor filolog mutaxassislar o‘zlarini “tarjimashunos” deb e’lon qila boshladilar . Ular tarjimashunoslikni “odatdagi” til yoki adabiyot predmetlarining biri deb tushunib, yangi o‘quv planlaridagi tarjima foydasiga bo‘lgan o‘zgarishning mohiyati, maqsadi, xususiyati hamda bulardan kelib chiqadigan tadbirlarning mazmuni va mundarijasini durust idrok etmaydilar . Shunday qilib, tarjimashunoslik faniga bo‘lgan agnostik qarash, asosan, barham topgan hozirgi vaqtda «yalpi tarjimachilik harakatidan tug‘iladigan xavfning oldini olish masalasi ko‘ndalang bo‘lib qoldi. Buning uchun tarjima tarixi va tarjima nazariyasi tahsil kurslari, tarjimashunoslik predmetlarini yaratish lozim. Ana shunda boshqa filologik fanlar orasida tarjimaviy tahsilning o‘rni, uning predmetlari, maqsadi, tushunchalari, muammolari, terminologiyasi va hokazolar yuzaga qalqib chiqadi [1].

“Biz tarjima asrida yashamoqdamiz” [2] – deydi Edmon Kari, olimning fikrlariga qo‘shimcha sifatida, “Biz yashayotgan zamon – tarjima asridir” degan hulosalarni aytib o‘tmog‘imiz lozim.

Tarjima – xalqlar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy aloqalarning kengayishi manfaatlariga xizmat qilishi hech kimga sir emas.



Bevosita ispan tilini o‘qitishda talabalarda tarjimonlik kompetensiyasini shakllantirish metodikasining ilmiy jihatdan o‘rganilganligi: milliy va xorijiy tajriba misolida o‘rganadigan bo‘lsak, jahon amaliyotida tarjimonning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga integral yondashuv, texnik malakalar, til borasidagi mahorat, terminologiya va terminografiyani takomillashtirish, tarjimon kompetensiyasini baholash, tarjima jarayonida ikki til (o‘zbek va ispan) madaniyatida so‘zlar muqobilligini topish, tarjimonlar yo‘l qo‘yadigan tipik xatolarning oldini olishga qaratilgan korrektiv mashqlar tizimini yaratish alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan tarjimon tayyorlovchi muassasalarning o‘quv dasturlarida tarjimonning lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirish orqali tarjimonning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zaruriyatini izohlaydi.

Ispan tilini o‘qitishda talabalarda tarjimonlik kompetensiyasini shakllantirish metodikasining ilmiy jihatdan o‘rganilganligi: milliy va xorijiy tajriba yuzasidan olib qarasak, horij tilshunos olimlari bu borada bizdan ancha oldinda ekanligi hech kimga sir emas. Aynan ispan tiliga o‘qitishda talabalarda tarjimonlik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha zamon talablari asosida, bizda aytarli izlanishlar qilinmagan, o‘quv qo‘llanma, darslik, uslubiy materiallar, kitob, lug‘at va boshqa kerakli resurslar ta’lim jarayonida yetishmasligi yaqqol namayondir. Xorijiy tajribaga qaraydigan bo‘lsak, tarjimonlik kompetensiyasi yuzasidan ko‘plab tilshunos va lug‘atshunos olimlar ilmiy izlanishlar olib borishmoqd. Bu borada milliy tajribaga qaraydigan bo‘lsak, hozirgi kunda bizning ta’lim tizimimizda aynan tarjimonlik koptenensiyasini o‘rganinganlik yuzasidan tilshunos olimlar Sh.S.Safarov va I.M.To‘xtasinovlarning ilmiy izlanishlaridan foydalanishimiz mumkin. Sh.S.Safarovning fikrlariga asosan, har qanday holatda ham, tarjimonlik kompetensiyasining egallagan va oldin mavjud bo‘lgan deklarativ bilimlarning omuxtalanishi muhitida hamda ularning ijro yoki ijodkorlik qoidalariga moslashuvida shakllanadigan qobiliyat ko‘rinishida tasavvur qilganimiz ma’qul ko‘rinad [3]. Fikrimizcha, bu gaplarda jon bor, sababi



tarjimonlik kompetensiyasi o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi, balki tarjimonning bazaviy bilimlari, uning egallagan tajribasiga asosan rivojlanib boradi va ma’lum bir vaqtda uning ma’lum bir tarjimalar xususida fikr va o‘ylari takomillashib, yanada aniqroq tasavvur paydo bo‘lib boradi. Buni aniqroq aytadigan bo‘lsak, har bir so‘zning matnda qanday qo‘llanilishi va uning haqiqiy tarjimasi o‘rtasida unchalik tajribaga ega bo‘lmagan tarjimonning tarjimasidagi tushuncha bilan, haqiqiy mazmunan tarjimadagi tushunchalar o‘rtasida o‘zaro farq bo‘lishi tabiiy holatdir.

I.M.To‘xtasinovning fikrlariga ko‘ra, tarjimonlik kompetensiyasi tarjimonning kasbiy mahorat va imkoniyatlarini xarakterlovchi tushunchadir. Mazkur fikrlarga javob berishdan oldin, kompotensiya tushunchasining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ushbu tushuncha lotincha “competentia” so‘zidan olingan bo‘lib, kelishuv, muvofiqlik, mos kelishlik degan ma’nolarda kelib, kimdir yaxshi biladigan bir qator masalalar degan ma’noni anglatadi va uni bir so‘z bilan “barkamollik”, deb ta’kidlasak bo‘ladi. Boshqa manbalarda u “competence” so‘zi “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, ”bellashmoq” degan ma’noni beradi, so‘zma-so‘z tarjima qilinganda, “musobaqalashishga layoqatlilik” ma’nosida keladi [4].

Ma’lumki, eng mashhur til kompetensiyasi shkalalaridan biri – bu Common European Framework of Reference. Unda A1 dan C2 gacha bo‘lgan oltita daraja, jumladan o‘qish, yozish, eshitish, suhbatlashish kabi turli xil til malakalari mavjud. Biroq, mamalkatimizda ingliz tilidan boshqa chet tillariga bo‘lgan e’tiborning ingliz tili darajasida emasligi, aynan mana shu oltita daraja bo‘yicha ispan tili bilan shug‘ullanuvchi tarjimonlarning lozim darajada tashkil qilmasligiga sabab bo‘lmoqda. Kimdir ushbu darajalar bo‘yicha ma’lum bir bilim va ko‘nikmaga ega, biroq bularning barchasini jamlagan ispan tili tarjimashunosi bo‘lgan kadrlar soni respublikamizda deyarli juda kam.



Yuqoridagi fikrlarning yakuni sifatida aytishimiz kerakki, mamalkat chirog‘i bu til, aynan mana shu tilni bilsagina jamiyatda rivojlanish bo‘ladi, o‘zaro tushunmovchiliklar barham topadi. Buning uchun esa, chet tilini o‘rganmog‘imiz, chet tiliga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirmog‘imiz darkor. Ana shundagina shaxsda tarjimonlik kompetensiyasi to‘liq shakllanishiga uchun zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘.Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. – “O‘qituvchi”. T.: 1978y., – 5b.
2. Cary, E. Théories soviétiques de la traduction // Babel. Vol. III. N 4. 1957. P 179-190.
3. Sh.S.Safarov. Tarjima kompetensiyasining tarkibiy qismlari. “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal. journal.fledu.uz. № 3/2019. – 127b.
4. I.M.To‘xtasinov. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. – T.: 2018 y., Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – 14 b.
5. Anorboyeva. S. К ПРОБЛЕМЕ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR № 3 (2023).

